



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY.....	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLILIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	



ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ismailov Azizbek Madaminovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan Ichki auditning global standartlari talablarini O'zbekiston tijorat banklari amaliyotiga joriy etish masalalari tadqiq etilgan. Bank ichki auditini xalqaro tartibga solish manbalari tizimlashtirilib, milliy me'yoriy-huquqiy bazaning rivojlanish bosqichlari davriylashtirilgan. Global standartlarning o'nta talab yo'nalishi bo'yicha milliy normalar bilan muvofiqlik matritsasi (xalqaro talablar va milliy normalar o'rtasidagi moslik darajasini ko'rsatuvchi tahliliy jadval) tuzilib, institutsional o'zak (ichki audit xizmatining maqomi, mustaqilligi, hisobdorligi va tavakkalchilikka asoslangan rejalashtirish tizimi) bo'yicha muvofiqlik hamda to'rtta yo'nalish — mustaqil tashqi baholash, texnologiyalardan foydalanish, samaradorlikni o'lchash va mavzuviy talablar (yuqori tavakkalchilikka ega muayyan sohalarga oid maxsus talablar) — bo'yicha bo'shliqlar aniqlangan. Joriy etishning ustuvor yo'nalishlari ichki auditni boshqarish, faoliyatni rejalashtirish, natijalarni taqdim etish va sifatni baholash sohalari kesimida asoslanib, mavjud uzilishlarni bartaraf etishning uch bosqichli va uch darajali yo'l xaritasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, Ichki auditning global standartlari, tijorat banki, joriy etish, muvofiqlik matritsasi, me'yoriy-huquqiy baza, mustaqil tashqi baholash, samaradorlikni o'lchash, tavakkalchilikka asoslangan rejalashtirish, yo'l xaritasi.

Abstract. This article examines the implementation of the Global Internal Audit Standards, effective from 9 January 2025, in the practices of commercial banks in Uzbekistan. The sources of international regulation governing internal audit in banks are systematised, and the stages in the development of the national regulatory and legal framework are periodised. A compliance matrix, defined as an analytical table reflecting the degree of alignment between international requirements and national regulations, is developed across ten key requirement areas of the Global Standards. The analysis identifies compliance in relation to the institutional core, comprising the status, independence, accountability, and risk-based planning system of the internal audit function, as well as gaps in four areas: independent external assessment, the use of technology, performance measurement, and topical requirements relating to specific high-risk areas. Priority directions for implementation are substantiated in the areas of internal audit governance, activity planning, reporting of results, and quality assessment. A three-stage and three-level roadmap is proposed to address the identified gaps.

Keywords: internal audit, Global Internal Audit Standards, commercial bank, implementation, compliance matrix, regulatory and legal framework, independent external assessment, performance measurement, risk-based planning, roadmap.

Аннотация. В статье исследуются вопросы внедрения Глобальных стандартов внутреннего аудита, вступивших в силу 9 января 2025 года, в практику коммерческих банков Узбекистана. Систематизированы источники международного регулирования внутреннего аудита банков и проведена периодизация этапов развития национальной нормативно-правовой базы. По десяти направлениям требований Глобальных стандартов разработана матрица соответствия, представляющая собой аналитическую таблицу, отражающую степень согласованности международных требований и национальных норм. Выявлено соответствие по институциональному ядру, включающему статус, независимость, подотчётность и систему риск-ориентированного планирования службы внутреннего аудита, а также установлены пробелы по четырём направлениям: независимая внешняя оценка, использование технологий, оценка эффективности и тематические требования, относящиеся к отдельным областям повышенного риска. Обоснованы приоритетные направления внедрения стандартов в сферах управления внутренним аудитом, планирования деятельности, представления результатов и оценки качества. Предложена трёхэтапная и трёхуровневая дорожная карта по устранению выявленных пробелов.

Ключевые слова: внутренний аудит, Глобальные стандарты внутреннего аудита, коммерческий банк, внедрение, матрица соответствия, нормативно-правовая база, независимая внешняя оценка, оценка эффективности, риск-ориентированное планирование, дорожная карта.



KIRISH

Jahon amaliyotida ichki audit kasbining me'yoriy asosi tub yangilanishni boshdan kechirdi: Ichki auditorlar instituti tomonidan 2024-yil 9-yanvarda e'lon qilingan Ichki auditning global standartlari 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirib, Xalqaro kasbiy amaliyot asoslari (IPPF) tarkibidagi standartlar o'rnini egalladi [11; 12]. Besh domenga birlashgan 15 tamoyil va 52 standartdan iborat yangi tizim shunchaki tahririy yangilanish emas: unda majburiy talablar doirasi, standartlar arxitekturasini va urg'ulari qayta ko'rib chiqilib, boshqaruv organi mas'uliyati, sifatni baholash, texnologiyalardan foydalanish va samaradorlikni o'lchash talablari sezilarli kuchaytirildi. Mazkur yangilanishlar prudensial tartibga solinadigan va «uch chiziq» modeli nazorat kutilmalari darajasida mustahkamlangan bank sektori uchun bevosita amaliy ahamiyat kasb etadi [15; 16].

Milliy kontekst implementatsiya masalasini yanada dolzarblashtiradi. Bank tizimini isloh qilish strategiyasi [4] doirasida davlat ulushidagi banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlari jadallashdi: 2023-yilda «Ipoteka-bank» ATIB aksiyalarining 73,71 foizi OTP Bank tomonidan sotib olinib, bank xorijiy guruh tarkibiga kirdi [24], «Asakabank»ni xususiylashtirishni jadallashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi [6]. Bunday sharoitda xalqaro standartlarga muvofiqlik strategik investorlar, xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklari tomonidan bevosita baholanadigan amaliy talabga aylandi. Ayni paytda bank ichki auditini tartibga soluvchi asosiy milliy hujjat — tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi 3302-son nizom [8] — Global standartlar qabul qilinishidan avval tasdiqlangani bois, unda standartlarning yangi avlodiga xos ayrim unsurlar tabiiy ravishda aks etmagan.

Maqolaning maqsadi — Global standartlar talablari bilan amaldagi milliy me'yoriy-huquqiy baza o'rtasidagi muvofiqlikni matritsa usulida baholash, standart va milliy norma o'rtasidagi uzilishlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlarini ichki auditni boshqarish, faoliyatni rejalashtirish, natijalarni taqdim etish va sifatni baholash sohalari kesimida asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun xalqaro tartibga solish manbalari tizimlashtirildi, milliy bazaning rivojlanish bosqichlari davriylashtirildi, muvofiqlik matritsasi tuzildi va implementatsiya ketma-ketligi yo'l xaritasi shaklida taklif etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki auditni xalqaro standartlashtirishning evolyutsiyasi kasbning o'zini anglash jarayonini aks ettiradi. Ichki auditorlar instituti 1941-yilda tashkil etilgach, 1947-yilda ichki auditorning mas'uliyatlari to'g'risidagi dastlabki bayonotni e'lon qildi, 1978-yilda kasbiy amaliyotning ilk standartlari qabul qilindi; zamonaviy ichki audit maktabining asoschisi L.B. Soyerning ishlarida faoliyat doirasi sof moliyaviy tekshiruvdan operatsion samaradorlikni baholashgacha kengaytirildi [19]. 1999-yilgi ta'rif ichki auditni ishonch bildirish va maslahat xizmatlarini uyg'unlashtiruvchi faoliyat sifatida mustahkamlagan bo'lsa, 2000-yillarda standartlar tizimi Xalqaro kasbiy amaliyot asoslari shaklida qayta qurildi [12] va nihoyat, 2024-yilda Global standartlar e'lon qilindi [11]. Institut tomonidan mavzuviy talablar (Topical Requirements) instituti joriy etilib, birinchi bo'lib kiberxavfsizlik yo'nalishi bo'yicha majburiy unsurlar belgilandi [13]; ichki auditning tashkilotdagi o'rnini esa 2020-yilda yangilangan «uch chiziq» modeli belgilab beradi [14].

Bank sohasiga xos nazorat kutilmalari Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasining «Banklardagi ichki audit funksiyasi» hujjatida yigirma tamoyil ko'rinishida ifodalangan [15], korporativ boshqaruv tamoyillari hujjatida esa «uch himoya chizig'i» konstruksiyasi nazorat kutilmalari darajasida mustahkamlangan [16]. COSO konseptual asoslari ichki audit uchun baholash mezonlari vazifasini bajaradi [17], Auditning xalqaro standartlarining 610-son standarti esa tashqi auditorning ichki audit ishidan foydalanish shartlarini belgilab, ikki institut o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmini belgilaydi [18].

Milliy iqtisodiy adabiyotda mazkur masalalarning ayrim jihatlarini o'rganilgan: A.K. Ibragimov Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish masalalarini tadqiq etgan [20], N.F. Karimov bank ichki auditining uslubiy asoslarini yoritgan [21], G'.D. Tashmanov ichki audit xizmatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini asoslagan [22], N.Sh. Xajimuratov audit metodologiyasini rivojlantirish masalalarini o'rgangan [23].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Xalqaro kasbiy amaliyot asoslari amal qilgan davrda bajarilgan bo'lib, ularda 2025-yildan kuchga kirgan Global standartlarning yangilangan talablari bilan milliy tartibga solishning tizimli, yo'nalishlar kesimidagi qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan; implementatsiyaning ustuvor yo'nalishlari va ketma-ketligi ham maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy usuli me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qiyosiy mazmuniy tahlili bo'lib, u muvofiqlik matritsasi shaklida amalga oshirildi. Taqqoslash uchun Global standartlarning besh domeni bo'ylab bank amaliyoti uchun eng muhim o'nta talab yo'nalishi tanlab olindi: har bir domendan kamida bitta yo'nalish olinib, kengash mas'uliyati va sifat ta'minoti kabi yangi urg'ularga alohida o'rin berildi. Har bir yo'nalish bo'yicha milliy bazadagi holat uchta darajada baholandi: «mos» — talab milliy normalarda to'liq aks etgan; «qisman mos» — talab umumiy tarzda aks etgan, biroq batafsillashtirilmagan; «aks etmagan» — talab milliy normalarda o'z ifodasini topmagan. Baholashda faqat me'yoriy hujjatlarning matni tahlil qilindi, ya'ni matritsa normalarning mavjudligini aks ettiradi, ularning amalda bajarilish darajasini emas.

Bundan tashqari, tizimlashtirish, guruhlash, tarixiy-mantiqiy davriylashtirish va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi; implementatsiya strategiyasini asoslashda kuchli va zaif tomonlar, imkoniyat va xatarlarni o'zaro bog'lash mantig'i qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Ichki auditorlar instituti, Bazel qo'mitasi, COSO va IFAC hujjatlari [11–18], O'zbekiston Respublikasining bank faoliyatiga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari hamda Markaziy bank nizomlari [1–10], shuningdek, banklarning rasmiy oshkor etiladigan ma'lumotlari [24; 25] tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro standartlarning huquqiy tabiati milliy normalardan tubdan farq qiladi: ular davlat majburlov kuchiga ega emas va «yumshoq huquq» toifasiga kiradi, biroq ularning amaldagi ta'sir kuchi uchta mexanizm orqali ta'minlanadi. Birinchisi — kasbiy mexanizm: xalqaro kasbiy tashkilotlarga a'zolik va sertifikatlarga egalik standartlarga rioya etishni kasbiy burchga aylantiradi. Ikkinchisi — bozor mexanizmi: investorlar, reyting agentliklari va xalqaro moliya institutlari bankni baholashda uning ichki audit funksiyasini aynan xalqaro standartlar prizmasida ko'rib chiqadi. Uchinchisi — nazorat mexanizmi: milliy nazorat organlari xalqaro hujjatlar mazmunini o'z me'yoriy talablariga singdiradi va shu orqali ularga majburiy kuch bag'ishlaydi. Milliy bank tizimida ushbu mexanizmlarning ayrim amaliy ko'rinishlari kuzatilmoqda: kasbiy mexanizm xalqaro sertifikatlarga ega mutaxassislar sonining o'sishi orqali, bozor mexanizmi xususiyashtirish bitimlari va xalqaro qarz vositalari orqali, nazorat mexanizmi esa 3302-son nizom hamda Markaziy bankning nazorat amaliyoti orqali namoyon bo'lmoqda. Bu holat standartlarni o'rganishni nafaqat nazariy, balki bevosita amaliy vazifaga aylantiradi.

Standartlashtirishning iqtisodiy mazmunini ham qayd etish o'rinni: standartlar ichki audit sohasidagi axborot asimmetriyasini kamaytiruvchi institut vazifasini bajaradi. Kengash, investor yoki nazorat organi ichki audit xizmatining sifatini bevosita kuzata olmaydi; standartlarga muvofiqlik esa kuzatiladigan va tekshiriladigan sifat ko'rsatkichi bo'lib, «sifat» tushunchasini operatsion mezonlar tiliga o'giradi. Bundan tashqari, standartlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi: har bir bank ichki audit uslubiyotini noldan yaratish o'rniga tayyor, sinalgan va xalqaro e'tirof etilgan asosga tayanadi, turli banklar xizmatlarining faoliyati esa taqqoslanuvchan bo'lib qoladi.

Bank ichki auditini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar majmuasini to'rtta manba guruhiga ajratish mumkin. Birinchi guruh — Ichki auditorlar instituti standartlari: ular faoliyatning mazmuni, etikasi va sifatiga doir universal talablarni belgilaydi [11]. Ikkinchi guruh — Bazel qo'mitasi hujjatlari: ular ichki audit funksiyasiga nisbatan nazorat kutilmalarini ifodalaydi [15; 16]. Uchinchisi guruh — COSO konseptual asoslari: ular ichki auditga baholash predmetini — ichki nazorat va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarini — tizimli ta'riflash mezonlarini beradi [17]. To'rtinchi guruh — Auditning xalqaro standartlari, avvalo 610-son standart: u ichki auditning tashqi audit bilan o'zaro munosabatlari interfeysini belgilaydi [18]. Keyingi o'n yilliklarda mazkur manbalar o'rtasida yaqqol o'zaro yaqinlashuv va uyg'unlashuv kuzatilmoqda: ular bir-biriga havola beradi, atamalarni muvofiqlashtiradi va amalda yagona talablar makonini hosil qiladi; milliy tartibga solish uchun buning amaliy ahamiyati shundaki, implementatsiyada manbalardan birini «tanlash» shart emas — ularning o'zaro uyg'unlashgan asosiy talablariga tayanish maqsadga muvofiq.

Xalqaro kasbiy amaliyot asoslaridan Global standartlarga o'tishning sabablarini tahlil qilish implementatsiya mantiqini to'g'ri belgilash uchun muhim. Birinchi sabab — tizimning murakkablashuvi: avvalgi tizimda majburiy va tavsiyaviy unsurlar soni yillar davomida o'sib, talablarning yaxlit manzarasini ko'rish qiyinlashgan edi; Global standartlar barcha majburiy talablarni yagona hujjatga jamlab, har bir standartni talablar, amalga oshirish bo'yicha mulohazalar va muvofiqlikni namoyish etish dalillari kesimida bayon qiladi. Ikkinchi sabab — boshqaruv organi ishtirokining zaifligi: kengashga qaratilgan talablar avval standartlar matni bo'ylab sochiqlan bo'lsa, yangi tuzilmada ular alohida domenga jamlanib, «muhim shartlar» maqomini oldi. Uchinchisi sabab —



sifat baholashlari natijalari: tashqi baholashlar amaliyotida eng ko'p aniqlanadigan nomuvofiqliklar aynan sifat dasturi, samaradorlikni o'lchash va strategik rejalashtirish yo'nalishlariga to'g'ri kelar edi. To'rtinchi sabab — texnologik o'zgarishlar: ma'lumotlar tahlili imkoniyatlarining kengayishi standartlardan texnologiyaga nisbatan ochiq pozitsiyani talab qildi [11; 12].

Global standartlarning bank ichki auditi uchun eng muhim mazmuniy yangiliklarini to'rtta yo'nalishda umumlashtirish mumkin. Birinchidan, boshqaruv organi mas'uliyati: kengashning ichki audit samaradorligi uchun javobgarligi «muhim shartlar» sifatida rasmiylashtirilgan — kengash xizmat rahbarini tayinlash va baholash, resurslar yetariligidini ta'minlash, mustaqillikni himoya qilish bo'yicha aniq majburiyatlar oladi. Ikkinchidan, sifatni ta'minlash: doimiy ichki monitoring va davriy ichki baholashlar bilan bir qatorda kamida besh yilda bir marta mustaqil tashqi baholashdan o'tish talabi mustahkamlangan. Uchinchidan, texnologiyalar: xizmat rahbari faoliyat samaradorligini oshirish uchun texnologik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini muntazam baholab borishi lozim. To'rtinchidan, samaradorlikni o'lchash: xizmat rahbari funktsiya faoliyatining natijadorligini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi va kengash bilan kelishishi talab etiladi. Kiberxavfsizlik bo'yicha mavzuviy talab 2025-yil 5-fevralda e'lon qilingan va 2026-yil 5-fevraldan kuchga kirgan [13].

Implementatsiya masalasini to'g'ri qo'yish uchun milliy me'yoriy bazaning rivojlanish trayektoriyasini davriylashtirish zarur. Ichki auditga oid maxsus normalarning mavjudligi va yuridik darajasi hamda normalarning mazmuniy yo'nalganligi mezonlari asosida to'rt bosqichni ajratish mumkin (1-jadval).

1-jadval
Tijorat banklarida ichki auditni huquqiy tartibga solishning rivojlanish bosqichlari

Bosqich va davri	Asosiy hujjatlar	Bosqich xususiyati
I bosqich — shakllanish (1991–2000-yillar)	«Markaziy bank to'g'risida»gi (1995-yil) va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (1996-yil) qonunlar; auditorlik faoliyati to'g'risidagi dastlabki qonunlar	Ichki auditga oid maxsus normalar mavjud emas; nazorat funksiyalari taftish bo'linmalari va taftish komissiyalari orqali amalga oshirilgan
II bosqich — ilk maxsus tartibga solish (2000–2017-yillar)	Markaziy bankning 992-son nizomi (2000-yil; 2004-yil o'zgartirishlar bilan) [7]	Ichki auditga talablar ilk bor alohida nizomda belgilangan, biroq yondashuv asosan tekshiruv-nazorat mazmunida saqlangan; tartibga solish idoraviy hujjat darajasida qolgan
III bosqich — islohotlar (2017–2020-yillar)	PF-4947-son Farmon (2017-yil) [3]; O'RQ-580 va O'RQ-582-son qonunlar (2019-yil) [1; 2]; PF-5992-son Farmon (2020-yil) [4]; 3254-son nizom (2020-yil) [9]	Ichki audit xizmati majburiyligi va kuzatuv kengashiga hisobdorligi qonun darajasiga ko'tarilgan; audit qo'mitasi instituti joriy etilgan; transformatsiya va xususiylashtirish vazifalari belgilangan
IV bosqich — xalqaro standartlarga yaqinlashish (2021-yildan hozirga qadar)	3302-son nizom (2021 yil) [8]; 3427-son nizom (2023-yil) [10]; xususiylashtirish hujjatlari va bitimlari (2023–2026-yillar) [6; 24]	Tavakkalchilikka asoslangan ichki audit, risk-profilga tayangan rejalashtirish, malaka talablari batafsil belgilangan; milliy normalar xalqaro standartlar mazmuniga yaqinlashtirilgan

Manba: ko'rsatilgan qonunchilik hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

To'rtinchi bosqichning markaziy hujjati — 992-son nizom o'rniga qabul qilingan 3302-son nizom — milliy tartibga solishni mazmunan yangi darajaga olib chiqdi: unda ichki audit birinchi marta tavakkalchilikka asoslangan faoliyat sifatida ta'riflanib, auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirishda bank risk-profilini inobatga olish talab etildi [8]. Ayni vaqtda nizomning huquqiy tabiatini to'g'ri anglash muhim: u o'z mohiyatiga ko'ra minimal talablar hujjati bo'lib, faoliyatning majburiy quyi chegarasini belgilaydi, yetuklik darajasini esa ko'p jihatdan bankning o'z uslubiy ishlanmalariga qoldiradi. Bundan tashqari, hozirgi bosqichda rasmiy normalar ustiga o'ziga xos «yumshoq huquq» qatlami qurilmoqda: strategik investorlar, xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklarining kutilmalari milliy huquq manbai hisoblanmasa-da, mazkur kutilmalarga yetarlicha rioya etilmasligi bankning investitsiyaviy jozibadorligi va moliyalashtirish shartlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu ma'noda zamonaviy sharoitda bank ichki auditining faoliyat muhiti milliy tartibga solish, xalqaro standartlar va bozor kutilmalarining umumlashmasi sifatida shakllanadi.

Tadqiqotning markaziy tahliliy qadami — Global standartlar talablari bilan milliy tartibga solishning muvofiqligini baholash — yuqorida bayon etilgan metodika asosida amalga oshirildi. Natijalar muvofiqlik matritsasi ko'rinishida umumlashtirildi (2-jadval).



Talab yo'nalishi (GIAS)	Milliy bazadagi holat (O'RQ-580, 3302-son va 3254-son nizomlar)	Muvofiqlik darajasi	To'ldirish yo'nalishi
Maqom va tashkiliy mustaqillik	Xizmat mustaqil tarkibiy bo'linma sifatida tashkil etiladi; ijroiya organ ta'siridan himoyalangan	mos	—
Kengashga hisobdorlik va kengash mas'uliyati	Audit qo'mitasi orqali kuzatuv kengashiga hisobdorlik belgilangan; kengashning funktsiya samaradorligi uchun majburiyatlari umumiy tarzda ifodalangan	qisman mos	Kengash («muhim shartlar») majburiyatlarini aniqlashtirish
Tavakkalchilikka asoslangan rejalashtirish	Yillik reja bank risk-profilini asosida tuzilishi va kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi talab etilgan	mos	Uslubiy ta'minot (risk-baholash metodikasi)
Etika talablari	Xolislik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik talablari mavjud	qisman mos	Odob-axloq kodeksiga tizimli havola
Malaka va uzluksiz rivojlanish	Xodimlar malakasiga umumiy talablar belgilangan	qisman mos	Sertifikatlash va malaka oshirish mexanizmlari
Sifatni ta'minlash: ichki baholash	Xizmat faoliyati ustidan nazorat umumiy tarzda nazarda tutilgan	qisman mos	Sifatni ta'minlash va oshirish dasturi tartibi
Sifatni ta'minlash: mustaqil tashqi baholash (kamida 5 yilda bir marta)	Davriy mustaqil tashqi baholash talabi belgilanmagan	aks etmagan	Tashqi baholash talabi va tartibini joriy etish
Texnologiyalardan foydalanish	Ma'lumotlar tahlili va uzluksiz audit vositalari bo'yicha talablar mavjud emas	aks etmagan	Texnologik vositalar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar
Samaradorlikni o'lchash	Funktsiya natijadorligini baholash ko'rsatkichlari nazarda tutilmagan	aks etmagan	Samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi
Mavzuviy talablar (jumladan kiberxavfsizlik)	Alohida mavzuviy audit talablari belgilanmagan	aks etmagan	Yuqori riskli sohalar bo'yicha majburiy audit unsurlari

Manba: Global standartlar [11] hamda O'RQ-580-son Qonun [1], 3302-son [8] va 3254-son [9] nizomlar mazmunini qiyosiy tahlil qilish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Muvofiqlik matritsasi milliy tartibga solishning kuchli va zaif tomonlarini aniq ifodalaydi. Institutsional o'zak — maqom, mustaqillik, hisobdorlik va tavakkalchilikka asoslangan rejalashtirish — xalqaro talablarga mos keladi; bu to'rtinchi bosqich islohotlarining bevosita natijasidir. Qisman moslik kuzatilgan yo'nalishlar — kengash mas'uliyati, etika, malaka va ichki sifat nazorati — normada mavjud, biroq ularning amalga oshirish mexanizmlari batafsillashtirilmagan; bunda asosiy yuk banklarning ichki hujjatlari va uslubiy ishlanmalari zimmasiga tushadi. To'rtta yo'nalish — mustaqil tashqi baholash, texnologiyalar, samaradorlikni o'lchash va mavzuviy talablar — milliy bazada umuman aks etmagan; xarakterlisi shundaki, aynan shu yo'nalishlar Global standartlarning asosiy yangiliklarini tashkil etadi, ya'ni milliy nizom standartlarning avvalgi avlodiga moslashgan holda qabul qilingan va yangi avlod talablarini qamrab olishga ulgurmagan.

«Aks etmagan» deb baholangan to'rt yo'nalishning har biri alohida asoslashga muhtoj. Mustaqil tashqi baholash talabi ichki audit uchun «o'zini o'zi tekshirish» paradoksini hal qiladi: barcha bo'linmalarni baholovchi xizmatning o'z faoliyati ham davriy ravishda chetdan baholanishi mantiqan zarur; tashqi baholash bankka o'z xizmatini xalqaro amaliyot bilan taqqoslash imkonini beradi, xarajatlar esa besh yillik davrga taqsimlanganda ichki audit xizmati budjetining nisbatan kichik ulushini tashkil etishi mumkin. Texnologiyalar yo'nalishida gap avtomatlashtirilgan nazorat vositalaridan uzluksiz audit konsepsiyasiga o'tish haqida bormoqda: operatsiyalarning to'liq massivini dasturiy indikatorlar orqali muntazam tahlil qilish tanlanma tekshiruvga nisbatan audit qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi. Samaradorlik ko'rsatkichlari yo'nalishida muvozanatli yondashuv talab etiladi: faqat miqdoriy mezonlardan foydalanish ichki audit faoliyatining formal natijalarga



haddan tashqari yo'naltirilishiga olib kelishi mumkin., shu bois ular sifat ko'rsatkichlari — topilmalar ahamiyati, tavsiyalar ijrosi, manfaatdor tomonlar bahosi — bilan uyg'unlashtiriladi. Mavzuviy talablar esa yuqori riskli sohalarida audit chuqurligining yagona minimal darajasini kafolatlaydi; kiberxavfsizlik bo'yicha birinchi talabning qabul qilinishi bank sektori uchun muhim amaliy yo'nalish hisoblanadi [13].

Matritsa natijalaridan implementatsiya strategiyasiga oid uchta xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, implementatsiya ikki darajada — me'yoriy va institutsional darajalarda — parallel olib borilishi lozim: ayrim talablar (masalan, tashqi baholash davriyligi) Markaziy bank nizomiga kiritilishni taqozo etsa, boshqalari (riskni baholash metodikasi, samaradorlik ko'rsatkichlari) banklar va kasbiy hamjamiyat darajasidagi uslubiy hujjatlarda hal etilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, proporsionallik tamoyiliga rioya etish zarur: tizimli ta'sirga ega yirik banklar uchun talablar to'liq hajmda, kichik banklar uchun esa bosqichma-bosqich va soddalashtirilgan shaklda joriy etilishi xalqaro amaliyotga mos keladi [15]. Uchinchidan, implementatsiya ketma-ketligi «institutsional asoslardan uslubiy vositalarga» tamoyili bo'yicha qurilishi lozim: avval kengash mas'uliyati va sifatni baholash mexanizmlari, so'ngra texnologik va o'lchov vositalari — aks holda yangi vositalar mavjud institutsional mexanizmlar takomillashtirilmasdan turib kutilgan samarani bermasligi mumkin. Strategiya bilan bir qatorda uning xatarlarini ham hisobga olish lozim: rasmiy muvofiqlik xatariga qarshi vosita — talablarni joriy etishni natija ko'rsatkichlari va tashqi baholash bilan bog'lash; terminologik nosozlikka qarshi — kelishilgan atamalar lug'atini yaratish; kadrlar taqchilligiga qarshi — sertifikatlashni rag'batlantirish va banklararo tajriba almashinuvi; kichik banklar uchun nomutanosib yuklamaga qarshi — proporsionallik tamoyilini milliy tartibga solishda aniq ifodalash.

Yuqoridagi tahlil asosida implementatsiyaning ustuvor yo'nalishlarini to'rt soha kesimida umumlashtirish mumkin (3-jadval).

3-jadval
Global standartlar talablarini implementatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari

Soha	Ustuvor chora-tadbirlar mazmuni
Ichki auditni boshqarish	Kengash va audit qo'mitasi mas'uliyatini «muhim shartlar» ruhida aniqlashtirish; xizmat rahbari maqomi va rag'batlantirilishining mustaqillik kafolatlarini kuchaytirish; ikkinchi va uchinchi chiziqlar chegarasini aniq belgilash
Faoliyatni rejalashtirish	Tavakkalchilikka asoslangan rejalashtirishni rasmiy talabdan ishchi metodikaga aylantirish — audit ob'ektlari majmuasini yuritish, risklarni balli baholash va tekshiruvlar davriyligini belgilash qoidalarini joriy etish
Natijalarni taqdim etish	Hisobotlarning kengash ehtiyojlariga yo'naltirilgan formatini, topilmalarni ahamiyati bo'yicha darajalashni va tavsiyalar ijrosi monitoringini standartlashtirish; nazorat organi bilan muloqot mexanizmlarini institutsional shaklga keltirish
Sifatni baholash	Ichki sifat dasturini majburiy unsurga aylantirish; kamida besh yilda bir marta mustaqil tashqi baholashni joriy etish; samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini qo'llash

Manba: muallif ishlanmasi.

Aniqlangan uzilishlarni bartaraf etish ketma-ketligi uch bosqichli va uch darajali yo'l xaritasi shaklida taklif etiladi; chora-tadbirlar Markaziy bank, kasbiy hamjamiyat (banklar assotsiatsiyasi) va tijorat banklari darajalari bo'yicha taqsimlanadi. Birinchi — tayyorgarlik — bosqichida (taxminan bir yil) implementatsiyaning axborot va hujjat asosi yaratiladi: Markaziy bank darajasida muvofiqlik matritsasini rasmiy baholash va me'yoriy o'zgartirishlar konsepsiyasini shakllantirish, standartlar atamalarining kelishilgan milliy lug'atini tasdiqlash; assotsiatsiya darajasida namunaviy audit xartiyasi va ichki nizomlarni ishlab chiqish, sertifikatlashga tayyorlov dasturlarini yo'lga qo'yish; bank darajasida har bir ichki audit xizmatining o'z faoliyatini yangi talablarga muvofiqlik bo'yicha tafovutlar tahlilidan (inglizcha *gap analysis* — amaldagi holat bilan belgilangan talablar o'rtasidagi farqlarni aniqlash usuli) o'tkazishi, audit xartiyasi va ichki hujjatlarini yangilashi hamda xodimlarini o'qitishi.

Ikkinchi — joriy etish — bosqichida (ikki-uch yil) og'irlik markazi uslubiy vositalarga ko'chadi: risk-asosli rejalashtirish metodikasi, sifatni ta'minlash va oshirish dasturi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi banklarda amalda qo'llanila boshlaydi, Markaziy bank 3302-son nizomga tashqi baholash, texnologiyalar va samaradorlik talablarini kiritadi. Uchinchisi — yetuklik — bosqichida (to'rt-beshinchi yillar) birinchi mustaqil tashqi baholashlar o'tkaziladi, uzluksiz audit vositalari va mavzuviy talablar (avvalo, kiberxavfsizlik bo'yicha) joriy etiladi, nazorat amaliyoti esa ichki audit sifatini baholashning risk-asosli uslubiga to'liq o'tadi [11]. Bosqichlarning muddatlari taxminiy bo'lib, bank toifasi va tayyorgarlik darajasiga qarab moslashtiriladi; har bir bosqichga monitoring



ko'rsatkichlari — gep-tahlildan o'tgan banklar ulushi, risk-asosli metodikani qo'llayotgan xizmatlar soni, xalqaro sertifikatli mutaxassislar ulushi, tashqi baholashdan o'tgan banklar soni — birlashtirilishi yo'l xaritasini faqat umumiy qoidalarni bayon etuvchi hujjatdan aniq ko'rsatkichlar asosida boshqariladigan jarayonga aylantiradi.

Tanlangan banklar misoli xalqaro standartlar talablarining amaldagi ta'siri turli mexanizmlar orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. «Ipoteka-bank» aksiyalarining 73,71 foizi OTP Bank tomonidan sotib olinishi natijasida bank OTP Group tarkibiga kirdi [24]. Mazkur integratsiya bankning korporativ boshqaruv, ichki nazorat va audit amaliyotlarini bosh guruh yondashuvlari bilan bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. «Asakabank»ni xususiyashtirishni jadallashtirish bo'yicha esa alohida qaror qabul qilingan [6]. Xususiyashtirish jarayonida bankning korporativ boshqaruv, ichki nazorat va ichki audit tizimining holati potensial investorlar tomonidan baholanadigan muhim institutsional omillardan biri bo'lishi mumkin. Demak, tizimli ahamiyatga molik banklar uchun xalqaro standartlarga muvofiqlik turli institutsional va bozor mexanizmlari orqali shakllansa-da, birdek dolzarb vazifaga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, bank ichki auditini xalqaro tartibga solish to'rtta manba — Ichki auditorlar instituti standartlari, Bazel qo'mitasi tamoyillari, COSO konseptual asoslari va Auditing xalqaro standartlaridan iborat funksional jihatdan o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida shakllangan. Ushbu tizimning hozirgi asosini besh domenga birlashtirilgan 15 tamoyil va 52 standartdan iborat Ichki auditing global standartlari tashkil etadi. Standartlarning to'rtta asosiy yangiligi — kengash mas'uliyatining «muhim shartlar» maqomida rasmiylashtirilishi, kamida besh yilda bir marta mustaqil tashqi baholashdan o'tish talabi, texnologiyalardan foydalanish hamda samaradorlikni o'lchash — bank ichki auditi uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, milliy me'yoriy bazaning to'rt bosqichli evolyutsiyasi tartibga solish markazining idoraviy hujjatlardan qonun darajasiga ko'chganini va mazmunan taftish-tekshiruv mantig'idan tavakkalchilikka asoslangan yondashuvga o'tilganini ko'rsatdi; hozirgi bosqichda rasmiy normalar ustiga strategik investorlar, xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklari kutilmalaridan iborat «yumshoq huquq» qatlami qurilmoqda.

Uchinchidan, Global standartlarning o'nta talab yo'nalishi bo'yicha tuzilgan muvofiqlik matritsasi milliy tartibga solishning institutsional o'zak — maqom, mustaqillik, hisobdorlik va risk-asosli rejalashtirish — bo'yicha mosligini, kengash mas'uliyati, etika, malaka va ichki sifat nazorati bo'yicha qisman mosligini hamda to'rt yo'nalish — mustaqil tashqi baholash, texnologiyalar, samaradorlikni o'lchash va mavzuviy talablar — bo'yicha uzilishlarni aniqladi; mazkur uzilishlar aynan standartlarning yangi avlodiga xos unsurlarga to'g'ri keladi.

To'rtinchidan, implementatsiyaning ustuvor yo'nalishlari ichki auditni boshqarish, faoliyatni rejalashtirish, natijalarni taqdim etish va sifatni baholash sohalarida kesimida asoslandi hamda uzilishlarni bartaraf etishning uch bosqichli (tayyorgarlik — joriy etish — yetuklik) va uch darajali (Markaziy bank — kasbiy hamjamiyat — tijorat banki) yo'l xaritasi taklif etildi; implementatsiya «institutsional asoslardan uslubiy vositalarga» ketma-ketligida, proporsionallik tamoyiliga rioya etgan holda amalga oshirilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: 3302-son nizomga mustaqil tashqi baholash davriyligi, texnologiyalardan foydalanish va samaradorlik ko'rsatkichlariga doir talablarni kiritish; kasbiy hamjamiyat darajasida standartlar atamalarining kelishilgan milliy lug'atini, namunaviy audit xartiyasi va ichki nizomlarni ishlab chiqish; har bir bankda Global standartlar talablari bo'yicha gep-tahlil o'tkazib, ichki hujjatlarni yangilash va xodimlarni sertifikatlashga yo'naltirish; muvofiqlik matritsasini «tirik» hujjat sifatida davriy yangilab borish va natijalarini me'yoriy ijodkorlik rejalariga singdirish. Taklif etilgan yondashuv ichki audit xizmatining rivojlanganlik darajasini baholash va sifatini ta'minlash bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun tahliliy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni : 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-4581969> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni : 2019-yil 11-noyabrdagi O'RQ-582-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-4590452> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni : 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-3107036> (murojaat sanasi: 22.07.2026).



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni : 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-4811025> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni : 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «“Asakabank” aksiyadorlik jamiyatini xususiyashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori : 2026-yil 20-apreldagi PQ-149-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-8151497> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
7. Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom : O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2000-yil 25-noyabrdagi 405-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 22-dekabrda 992-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; keyingi o'zgartirishlar bilan; o'z kuchini yo'qotgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-866557> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
8. Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom : O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 10-iyuldagi 14/10-son qarori (ro'yxat raqami 3658, 2025-yil 8-avgust) tahririda// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-5431666> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
9. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom : O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/8-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3254-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; keyingi o'zgartirishlar bilan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-4888804> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
10. Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizom : O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi 4/11-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023-yil 18-aprelda 3427-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 5-dekabrda 37/6-son qarori (ro'yxat raqami 3427-1, 2025-yil 21-yanvar) bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6436466> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
11. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards [Electronic resource]. – Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2024. – URL: https://www.theiia.org/globalassets/site/standards/globalinternalauditstandards_2024january9.pdf (accessed: 22.07.2026).
12. The Institute of Internal Auditors. International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing (Standards) [Electronic resource]. – Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2017. – URL: <https://www.theiia.org/globalassets/site/standards/mandatory-guidance/ippf/2017/ippf-standards-2017-english.pdf> (accessed: 22.07.2026).
13. The Institute of Internal Auditors. Cybersecurity Topical Requirement [Electronic resource]. – Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2025. – URL: https://www.theiia.org/globalassets/site/standards/topical-requirements/cybersecurity/cybersecurity_topical_requirement.pdf (accessed: 22.07.2026).
14. The Institute of Internal Auditors. The IIA's Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense [Electronic resource]. – Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2020. – URL: <https://www.theiia.org/globalassets/documents/resources/the-iias-three-lines-model-an-update-of-the-three-lines-of-defense-july-2020/three-lines-model-updated-english.pdf> (accessed: 22.07.2026).
15. Basel Committee on Banking Supervision. The Internal Audit Function in Banks [Electronic resource]. – Basel : Bank for International Settlements, 2012. – URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs223.htm> (accessed: 22.07.2026).
16. Basel Committee on Banking Supervision. Corporate Governance Principles for Banks [Electronic resource]. – Basel : Bank for International Settlements, 2015. – URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d328.htm> (accessed: 22.07.2026).
17. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. Internal Control — Integrated Framework [Electronic resource]. – Durham, NC : COSO, 2013. – URL: <https://www.coso.org/internal-control> (accessed: 22.07.2026) ; Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance [Electronic resource]. – Durham, NC : COSO, 2017. – URL: <https://www.coso.org/enterprise-risk-management> (accessed: 22.07.2026).



18. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standard on Auditing 610 (Revised 2013): Using the Work of Internal Auditors [Electronic resource]. – New York : International Federation of Accountants, 2013. – URL: <https://www.iaasb.org/publications/isa-610-revised-2013-using-work-internal-auditors-0> (accessed: 22.07.2026).
19. Sawyer L.B., Dittenhofer M.A., Scheiner J.H. Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing. – 5th ed. – Altamonte Springs, FL : The Institute of Internal Auditors, 2003. – 1446 p.
20. Ibragimov A.K. Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari : o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 383 b. – ISBN 978-9943-302-80-8.
21. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit : monografiya. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. – 262 b.
22. Tashmanov G'.D. Ichki audit xizmatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.
23. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 66 b.
24. OTP Bank Plc. OTP Bank Entered the Central Asian Region by Acquiring Ipoteka Bank [Electronic resource]. – Budapest, 13 June 2023. – URL: <https://www.otpgroup.info/news/OTP-Bank-Uzbek-transaction-closed-Ipoteka-Bank-acquired> (accessed: 22.07.2026).
25. O'zbekiston Respublikasi Korporativ axborot yagona portali. Tijorat banklarining yillik hisobotlari va korporativ axboroti [Elektron resurs]. – URL: <https://openinfo.uz> (murojaat sanasi: 22.07.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>